

BAYONNOMASI № _____

6.12. 2023 yil

Sariosiyo tumani

Yig'ilish raisi: R.Shukurov

Kotiba : M. Panjiyeva

Qatnashdilar: Kafedra professor-o'qituvchilar: 12 nafar

KUN TARTIBI:

- 1.Ochiq dars muhokamasi. Mavzu: "Hozirgi davrda jaxon mamlakatlari ta'lim tizimi."
(Ergasheva Oyjamol – Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi , innovatsiyasi va integratsiyasi) .

Eshitildi:

Yig'ilishni **Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining** mudiri R. Shukurov ochib, bugungi kafedra yig'ilishda Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining o'qituvchisi O.Ergashevaning Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4Bt -20 guruhida – "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" fanidan " Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi" mavzusidagi 2 soatlik ochiq darsini kuzatdik.. O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ko'rinib turibdi, dars o'tish mahorati talabga javob beradi, nutq madaniyati, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi yaxshi, darsning taqsimlanishi to'g'ri taqsimlangan. O'qituvchi talabalarga savollar berish orqali, talabalarni o'ziga jalb qila oldi. AKT dan unumli foydalana oldi.





Ushbu masala yuzasidan Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi I.Elmuurodova so'zga chiqib, dedi: "O.Ergasheva tomonidan o'tilgan dars juda qiziqarli olib borildi. O'qituvchining bilim darajasi yetarli ekanligi sezilib turibdi. Darsda o'zini tutishi, talabalar bilan savol –javob tarzida dars o'tish uslubidan foydalanishi hozirgi yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llayotganligidan dalolat berib turibdi. Nutqi ravon va sodda bo'lishi sababli aytilayotgan fikrlar talabalarga yaxshi yetib bormoqda. O'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi deb o'ylayman va namunali deb baholayman ".



Shundan keyin Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi S.Do'stov so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Dars yaxshi tashkil qilindi, siyosiy axborotlar va kundalik yangiliklar haqida ma'lumotlar, uyga vazifa esa turli xil tarzidagi metodlar yani savol- javob, kungaboqar, krasvord kabi metod va oyinlar tashkil qilindi va talabalardan so'raldi, o'tilgan mavzu esa "kungaboqar" metodi orqali amalga oshirilib, talabalar baholandi. O'qituvchi yangi mavzuni talabalarga yaxshi yetkazib berdi. Dars jarayonida AKT dan foydalanib, talabalarni darsga qiziqтира oldi. Demak, o'qituvchi darsga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rgan, shuning uchun bu darsni ijobiy deb baholayman ".

Yig'ilish so'ngida so'z navbati o'qituvchi M. Panjiyevaga berildi. M. Panjiyeva ochiq amaliy mashg'ulot darsida ishtirok etgan professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi va muhokama jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagogik faoliyatida e'tiborga olishini ta'kidladi.



Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integrasiya" fani o'qituvchisi O.Ergashevaning "Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi" mavzusidagi ochiq darsi namunali deb baholansin.

Yig'ilish raisi:
Kotibi:

R.Shukurov
M. Panjiyeva